

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALARINI BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI**

**UBAYDULLAYEVA AZIZA HAMROQUL QIZI**

**O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A‘ZO BO‘LISHI  
SHAROITIDA AKSIZ SOLIG‘I SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Ubaydullayeva Aziza Hamroqul qizi**

O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi sharoitida aksiz solig‘i solishni takomillashtirish..... 3

**Убайдуллаева Азиза Ҳамроқул кизи**

Совершенствование акцизного налогообложения в условиях вступления Узбекистана в Всемирной торговой организации..... 31

**Ubaydullayeva Aziza Hamraqul qizi**

Improving excise taxation in the context of Uzbekistan’s accession to the World Trade Organization..... 60

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 64

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALARINI BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI**

**UBAYDULLAYEVA AZIZA HAMROQUL QIZI**

**O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A‘ZO BO‘LISHI  
SHAROITIDA AKSIZ SOLIG‘I SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsi komissiyasida 2023.4.PhD/Iqt3527 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Voronin Sergey Aleksandrovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori

**Rasmiy taqrizchilar**

**Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qo'zieva Nargiza Ramzanovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent Kimyo xalqaro universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.01.11 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy Tel.: (99871) 246-08-96; 246-02-24 E-mail: [devonxona@nuu.uz](mailto:devonxona@nuu.uz))

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy Tel.: (99871) 246-08-96; 246-02-24 E-mail: [kutubxona@nuu.uz](mailto:kutubxona@nuu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**A.M. Sodiqov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Q.Q. Mambetjanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**A.V. Vaxabov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon mamlakatlarida tamaki va alkogol mahsulotlari bilan birga shakarli ichimliklar hamda inson salomatligi va ekologiyaga zarar keltiradigan har qanday mahsulotlarga aksiz solig'ini joriy etish tendensiyasi kuchaymoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, «...so'nggi yillarda jahon davlatlari bo'yicha aksiz osti tovarlar va xizmatlari bo'yicha byudjet daromadlarining global tendensiyasi deyarli o'zgarmasdan, YaIMga nisbatan Germaniyada 10 foiz, Kanadada 8,0-7,6 foiz, AQShda 4,4-4,1 foiz, Rossiyada 7,5-8,2 foizni»<sup>1</sup>. Bu holat aksiz soliqlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish va ularni milliy qonunchilikka xalqaro talablar asosida integratsiya qilishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda aksiz solig'ining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish, uning rag'batlantiruvchi va cheklovchi funksiyalarini kuchaytirish orqali atmosfera holatini yaxshilash hamda kasallanish darajasini pasaytirishga ta'sirini oshirish masalalari global muammo sifatida o'rganilmoqda. Jumladan, soliqlarni real vaqt rejimi va «katta ma'lumotlar» (big data) tamoyillariga asoslangan holda yig'ish, intellektual soliqlar («aqli soliqlar») tizimiga o'tish, blokcheyn texnologiyalaridan foydalangan holda avtomatik soliqqa tortish, aksiz to'lovlarini hisobga olish va nazorat qilish jarayonini raqamlashtirish orqali uning tartibga solish funksiyasini yanada samarali amalga oshirish masalalari tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda aksiz soliqlari samaradorligini oshirish, mahalliy va import mahsulotlar uchun stavkalarini optimallashtirish va tenglashtirish, shuningdek atrof-muhit holatini yaxshilash hamda aholi salomatligini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalarida ham «...soliq tizimini to'liq raqamlashtirish, soddalashtirish va tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish», shuningdek, «...ortiqcha vaznga va semizlikka ega katta yoshdagi aholini tegishincha 32 foiz va 23 foizga qadar kamaytirish»<sup>2</sup> masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash respublikada aksiz osti mahsulotlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini chuqurlashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 28 dekabrda O'RQ-891-son «Soliq va byudjet siyosatining 2024 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida», 2024 yil 24 dekabrda O'RQ-1014-son «Soliq va byudjet siyosatining 2025 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish

<sup>1</sup> Fiscal policy in the Great election year [https://www.imf.org/-/media/Files/Publications/fiscal\\_monitor/2024/April/English/ch1.ashx](https://www.imf.org/-/media/Files/Publications/fiscal_monitor/2024/April/English/ch1.ashx)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrda PF-158 son"O'zbekiston-2030 Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6600413>

to'g'risida»gi Qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi PF-5116-son «Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018 yil 29 iyundagi PF-5468-son «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida», 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida», 2024 yil 3 iyundagi PF-85-son «Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari, 2023 yil 2 iyundagi PQ-181-son «O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorida va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bilan aloqasi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishining "I. Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Aksiz solig'i solishning fundamental va nazariy asoslari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni A. Smit, A. Pigu, F.J.Chalupka, O.Tegetaeva, L.Borovko, M.Troyanskaya, Y.O.Nizamiyeva, U.Iragelova, Y.Pavlenko, K.Kalabin, Y.Nesterenko kabi xorijiy iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ko'rish mumkin<sup>3</sup>.

|Yaqin xorij mamlakatlari olimlaridan Rossiya Federatsiyasida tamaki mahsulotlari bo'yicha aksiz soliqlari masalalari Y.Yadrennikova, P. Blinova va Y.Yakovskayaning ishida ko'rib chiqilgan<sup>4</sup>.

O'rganilayotgan muammoning ayrim jihatlari N.Ernazarov, E.Gadoyev, O.Shodiyev, K.Yaxyoyev, T.Malikov, S.Voronin, I.Niyazmetov, O.Yuldashev, B.Sanakulova va K.Orzibekov, B. Boykabilov, O. Abduraxmanov, A.Jurayev, A.Vaxobov, T.Malikov, Sh.Toshmatov, B.Tashmuradova kabi o'zbek olimlari va tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlarida ham o'z ifodasini topgan<sup>5</sup>.

---

<sup>3</sup>Adam Smith, *An Inquiry into the Nature and Causes of The Wealth of Nations* (Cambridge, MA: Harvard University Press, Mar. 9, 1776); A. Pigou *The Economics of Welfare*", F.J.Chaloupka. *The Use of Excise Taxes to Reduce Tobacco, Alcohol, and Sugary Beverage Consumption/ Annual Review of Public*; O.Tegetaeva, *К проблемам реформы акцизного налогообложения.*// *Налоговый менеджмент.*2016,№6.-С.71-75., Л.Боровко,*Формирование социально-ориентированной модели акцизного налогообложения и эффективность её развития*// *Проблемы экономики и юридической практики*, 2012, №6.-С.23-27., А. Водовозов, В. Сазанский. *Когда акциз можно принять к вычету.* // 2024. – URL: <https://1gl.ru/#/document/16/137913/dfasugxzbu/?of=soru-20918943d0>; М.Троянская, Низамиева Ю.О. *Совершенствование акцизного налогообложения как инструмента налогового регулирования.*// *Бизнес в законе*, 2013,№8.-С.121., , У.Ирагелова , *Оценка эффективности системы акцизного налогообложения в Российской Федерации в современных условиях*// *Научные известия* 27/2022., Ю.Павленко,*Развитие акцизного налогообложения в Российской Федерации.* К.Калабин., Е.Нестеренко, *Сущность экономического механизма акцизного налогообложения.*

<sup>4</sup> Е. Ядренникова, П. Блинова. *Анализ и совершенствование акцизного налогообложения табачной продукции в Российской Федерации.* // *Фискальные инструменты стимулирования социально-экономического развития территорий и бизнеса* [https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/137759/1/978-5-91256-667-7\\_2024\\_284.pdf](https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/137759/1/978-5-91256-667-7_2024_284.pdf) ; Я. Яковская. *Совершенствование применения акцизов в Российской Федерации.* // *Дневник науки: №4 (40).* – 2020. <https://elibrary.ru/contents.asp?id=42842931>

<sup>5</sup>Эрназаров.Н.*A creative approach to effective measures to manage the taxation of excise goods.*, Гадоев Э. и др. *Ошибки по налогам.* – Т.: Мир экономики и права, 1996. -128 с.; Шодиев.О *Акцизный налог: особенности*

Davlat byudjetiga aksiz solig‘i tushumlarini oshirish muammolari Q.Usmonov, D.Abdulov ishlarida ko‘rib chiqilgan<sup>6</sup>.

Yuqorida keltirilgan ishlarda sog‘lom ovqatlanishni rag‘batlantirish, atrof muhitni muhofaza qilish, tengsizlikni kamaytirish nuqtayi nazaridan aksiz solig‘i solish masalalari alohida, yaxlit tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Bu omil ushbu mavzu bo‘yicha tadqiqot o‘tkazish zaruratini keltirib chiqaradi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi “Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishi sharoitida bank-moliya, soliq va investitsiya faoliyatini modernizatsiyalash muammolarini ilmiy ishlab chiqish” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarildi.

**Tadqiqot maqsadi** O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishi sharoitida aksiz solig‘i solishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

aksiz solig‘i va aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxatini joriy etish bilan bog‘liq global tendensiyalarni aniqlash;

milliy soliq rejimining JST qoidalariga muvofiqligini baholash va uni JSTga kirishga muvofiqlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

aksiz solig‘i stavkalari va aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati o‘zgarishining byudjet mablag‘larini shakllantirishga ta’siri tahlilini o‘tkazish;

aksiz solig‘i solinadigan tovarlar va xizmatlar ro‘yxatini o‘rganish;

O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishi sharoitida davlat byudjetiga aksiz solig‘i bo‘yicha mablag‘lar kelib tushishi prognozini ishlab chiqish;

---

применения в Узбекистане; Яхёев Қ. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. Дарслик. Қайта ишланган. ТМИ. Фан ва технологиялар маркази. Т. 2003. 247 б., Маликов Т.С. “Солиқ тизимини такомиллаштириш йўналишлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси тезислар тўплами. Т. Молия. 2011. 438 б., Ташмурадова Б. Иқтисодий тараққиётга эришишда солиқлардан самарали фойдаланиш: и.ф.д. дисс. Автореф. –Т. 2007.; Воронин С.А. Налоговый механизм стимулирования инноваций и необходимость его совершенствования в Узбекистане. Института прогнозирования и макроэкономических исследований. Т.: 2017. Стр. 11. Ниязметов И. Инвестицион-инновацион фаолликни оширишда солиқ механизмнинг роли. Халқаро илмий-амалий конференция тезислари тўплами. Т. Молия. 2017. БФА. (350) 199-201 б.; Юлдашев О.Т. Ўзбекистон Республикасида солиқ имтиёзларини такомиллаштириш йўналишлари. и.ф.н. диссерт. ТДИУ. Т. 2011. 156 б., Санақулова Б.Р. Кичик тадбиркорлик субъектларининг солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш орқали иқтисодий ўсишни таъминлаш. и.ф.н. диссерт. ТМИ. Т. 2015. 284 б., Орзибеков К. Инновацион фаолиятни солиқлар воситасида рағбатлантиришнинг илғор тажрибалари ва уларни Ўзбекистон шaroitida қўллаш масалалари. “Иқтисодий ва инновацион технологиялар”. № 4, 2015. 1-7 б.; Бойкабиллов Б. Жураев А. Налоги и налогообложение. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 408 с.; Вахобов А., Маликов Т. Финансы. – Т.: НОШИР, 2012. – 712 с.; Маликов Т. Актуальные вопросы налогов и налогообложения. - Т.: Академия, 2002. - 204 с.; Тошматов Ш. Роль налогов в развитии предприятий: Монография. – Т.: Фан ва технология, 2008. – 204 с.; Тошмурадова Б. Механизм управления экономикой посредством налогов. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – 128 с.;

<sup>6</sup> Усмонов.К Давлат бюджети даромадларини шакллантириш методологиясини такомиллаштириш. - Иқтисодий фанлари доктори (Doctor of Science) диссертацияси автореферат. 2024; Абдулов.Д Совершенствование налогового администрирования в условиях цифровизации экономики. Автореферат на соискание ученой степени PhD. 2025.

O‘zbekiston Respublikasida aksiz solig‘ini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob’ekti** O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan aksiz solig‘i tizimidir.

**Tadqiqot predmeti** aksiz solig‘ini qo‘llash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui, shuningdek ularni JSTga integratsiyalashuv sharoitida o‘zgartirishdir.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida moliyaviy-iqtisodiy tahlilning bir qator usullari metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Xususan, iqtisodiy, ekonometrik va mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, dinamik o‘rganish, ma’lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya usullaridan, shuningdek, statistik usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy jihatdan yangiligi** quyidagilardan iborat:

respublikada aksiz solig‘ining ijtimoiy samaradorligini oshirishga import qilinadigan va mamlakatda ishlab chiqariladigan sigareta mahsulotlariga qo‘llaniladigan turli xil darajadagi aksiz solig‘i stavkalarini unifikatsiya qilish orqali erishishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

aksiz solig‘ining rag‘batlantiruvchi funksiyasini respublikada etil spirti ishlab chiqaruvchilari uchun uning alohida fraksiyalari, ya’ni, don distillyati uchun mahalliy va import mahsulotlariga aksiz solig‘i stavkalari farqini kamaytirish orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

respublikada aksiz osti tovarlari diversifikatsiyasini kuchaytirishga tarkibida shakar va sun‘iy shirinlashtiruvchi qo‘shimchalar bo‘lgan gazlangan (1 litr uchun 500 so‘m) va energetik ichimliklarga (1 litrga 2000) aksiz solig‘ini joriy etish orqali erishish taklifi asoslangan;

byudjet daromadlari o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi korrelyatsion-regression bog‘liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida respublikada aksiz solig‘i tushumlarining 2030 yilgacha ko‘p variantli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirish, atrof muhitni muhofaza qilish va tengsizlikni kamaytirish asosida aksiz solig‘i solish tizimini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan;

aksiz solig‘i solish tizimini JST ga a’zolarining savdo aloqalari hududida amal qilayotgan qoidalariga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

aksiz solig‘i stavkalari va aksiz mahsulotlar ro‘yxati o‘zgarishining byudjet mablag‘larini shakllantirishga ta’siri o‘rganilgan;

aksiz solig‘i stavkalariga o‘zgartirish kiritish va aksiz tovarlar hamda xizmatlar ro‘yxatini kengaytirish hisobiga byudjet daromadlari kelib tushishining 2025–2026-yillarga mo‘ljallangan prognozi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalari ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yondashuvlar va usullarni to‘g‘ri qo‘llash, tahliliy materiallar va rasmiy manbalardan, shu jumladan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi,

Statistika agentligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi manbalaridan, xalqaro moliya institutlarining rasmiy manbalaridan olingan statistik ma'lumotlardan foydalanish, normativ-huquqiy hujjatlar asosida tadqiqot o'tkazish, korxonalarining moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish bilan belgilanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot davomida olingan ilmiy natijalar barqaror iqtisodiy rivojlanishni va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish sharoitida aksiz solig'i solishning funksional maqsadi haqidagi nazariy tushunchalarni to'ldiradi. Dissertatsiya tadqiqoti materiallarini o'quv jarayonida "Byudjet daromadlari", "Tashkilotlarni soliqqa tortish", "Soliqlar va soliq solish" kurslari bo'yicha o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlash hamda mashg'ulotlar o'tkazishda qo'llash mumkin.

**Tadqiqot natijalarini joriy etish.** O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida aksiz solig'i solishni takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

respublikada aksiz solig'ining ijtimoiy samaradorligini oshirishga import qilinadigan va mamlakatda ishlab chiqariladigan sigareta mahsulotlariga qo'llaniladigan turli xil darajadagi aksiz solig'i stavkalarini unifikatsiya qilish orqali erishish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrda O'RQ-1014-son «Soliq va byudjet siyosatining 2025 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi Qonuni asosida Soliq kodeksining 289<sup>1</sup>-moddasi 1-qismini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 14 fevraldagi 04/41-3-3275-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotda joriy qilinishi natijasida respublikada aksiz solig'ining ijtimoiy samaradorligini oshirish, import qilinadigan va mamlakatda ishlab chiqariladigan sigareta mahsulotlariga qo'llaniladigan turli xil darajadagi aksiz solig'i stavkalarini birxillashtirish va shu orqali O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishga qaratilgan ayrim vazifalarni amalga oshirishga erishiladi;

aksiz solig'ining rag'batlantiruvchi funksiyasini respublikada etil spirti ishlab chiqaruvchilari uchun uning alohida fraksiyalari, ya'ni, don distillyati uchun mahalliy va import mahsulotlariga aksiz solig'i stavkalari farqini kamaytirish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrda O'RQ-1014-son «Soliq va byudjet siyosatining 2025 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi Qonuni asosida Soliq kodeksi 289<sup>2</sup>-moddasining 1-qismini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 14 fevraldagi № 04/41-3-3275-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida respublikada etil spirti ishlab chiqaruvchilarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi oshishiga erishiladi;

respublikada aksiz osti tovarlari diversifikatsiyasini kuchaytirishga tarkibida shakar va sun'iy shirinlashtiruvchi qo'shimchalar bo'lgan gazlangan (1 litr uchun

500 so‘m) va energetik ichimliklarga (1 litrga 2000) aksiz solig‘ini joriy etish orqali erishish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 28 dekabrda O‘RQ-891-son «Soliq va byudjet siyosatining 2024 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni asosida Soliq kodeksi 289<sup>1</sup>-moddasining 3-qismini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 11 apreldagi 08/41-3-7890-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga tatbiq etilishi respublikada aksiz osti tovarlari diversifikatsiyasini kuchaytirish, byudjetga aynan shu yo‘nalishdan kelib tushgan mablag‘larni kasalliklarni davolash va oldini olish (sog‘lom turmush tarzi)ga yo‘naltirishga xizmat qiladi;

byudjet daromadlari o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi korrelyatsion-regression bog‘liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida respublikada aksiz solig‘i tushumlarining 2030 yilgacha bo‘lgan ko‘p variantli prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2025 yilga mo‘ljallangan parametrlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025 yil 14 fevraldagi 04/41-3-3275-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida respublikada aksiz solig‘i tushumidan keladigan daromad hisobiga ijtimoiy sohani moliyalashtirish samaradorligini oshirishga erishiladi.

**Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish.** Ushbu tadqiqotning asosiy natijalari 6 ta ilmiy-amaliy konferensiya, shu jumladan 4 ta respublika va 2 ta xalqaro konferensiyada muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining chop etilganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 5 ta, xalqaro jurnallarda 3 ta ilmiy maqola chop etilgan. Bundan tashqari, respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma‘ruzalarning 6 ta tezisi chop etildi.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish qismi, uchta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 122 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan, maqsad va asosiy vazifalar, obyekt va predmet belgilangan, respublika ilmfan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, ilmiy jihatdan yangiligi asoslab berilgan va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, natijalarni aprobatsiya qilish to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning "**Aksiz solig'i solishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobi aksiz solig'ini qo'llash zarurligini o'rganishga bag'ishlangan, tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, nazariy xulosalar shakllantirilgan. Ushbu bobni tayyorlashda iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solish masalalari bo'yicha xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchilarining qarashlari hamda fikr-mulohazalari keltirilgan, aksiz tovarlar ro'yxatini tanlash va aksiz solig'i stavkalarini qo'llash bo'yicha hamda JST qoidalariga amal qilishi sharoitida aksiz solig'i solish sohasida milliy rejimni o'rnatish xorij tajribasi asosida o'rganilgan.

Hozirgi vaqtda aksiz solig'i deyarli barcha bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Amaliyotda u boylarga solinadigan soliq degan nom oldi, chunki, qoida tariqasida, qimmatbaho buyumlar aksiz tovarlar hisoblanar edi. Doimiy ravishda ommaviy iste'mol talabiga ega bo'lgan alkogolli va tamaki mahsulotlari kabi tovarlar ham aksiz tovarlar qatoriga kiradi. Ushbu tovarlarga solinadigan aksiz solig'i, qoida tariqasida, fiskal va rag'batlantirish funksiyalarini samarali bajaradi.

Tadqiqotda Yevropa Ittifoqi va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlarida aksiz solig'i solish vositalaridan amaliyotda keng foydalanilishi o'rganildi. Tovarlarni Yevropa Ittifoqining istalgan joyida ishlab chiqarilganda yoki Yevropa Ittifoqiga kirmaydigan mamlakatlardan import qilinganda aksiz solig'i solinadi, biroq aksiz solig'i faqat oxirgi iste'mol uchun chiqarilganda to'lanadi. Ittifoq ichkarisida aksiz soliqlari tovarlar ichki foydalanish uchun yetkaziladigan a'zo davlatda to'lanadi. Alkogolli ichimliklar uchun to'langan aksiz soliqlari muayyan shartlarga rioya qilinganda va alohida holatlarda, masalan, tovarlar oxir-oqibat Yevropa Ittifoqiga kirmaydigan mamlakatlarga eksport qilinganda qaytarilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ko'pchilik aksiz tovarlarga solinadigan aksiz solig'i stavkalari qat'iy belgilangan miqdorda qo'yilganini ko'rsatadi (masalan, energiya tashuvchilar, alkogolli ichimliklar, elektr energiyasi va boshqa turdagi mahsulotlar). Biroq tamaki mahsulotlariga aksiz solig'ining aralash stavkalari qo'llaniladi<sup>7</sup>. Ba'zi mamlakatlarda elektr energiyasi iste'moliga aksiz solig'idan tabaqalashtirilgan asosda foydalaniladi.

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlarida aksiz solig'ining quyidagi uchta asosiy turi mavjud:

alkogol va tamaki mahsulotlariga an'anaviy tarzda belgilangan aksiz stavkalari;

---

<sup>7</sup> Kengash direktivasi 2003/96, Kengash direktivasi 2008/118/EC (OJ L-9, 14.01.2009). Elektron resurs: <https://trade.ec.europa.eu/access-to-markets/en/content/excise-duties>

yoqilg‘i-moylash materiallariga aksiz solig‘i, ular fiskal funksiyasidan tashqari yo‘llardan foydalanganlik va atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun to‘lov bo‘lib ham xizmat qiladi;

ko‘proq tarqatish funksiyasini bajaradigan qimmatbaho buyumlarga aksiz soliqlari yoki qimmatbaho buyumlarga maxsus yig‘imlar.

Aksiz solig‘i solish bo‘yicha xorij tajribasi, xususan, aksiz tovarlar ro‘yxatini tanlashni o‘rganish alkogolli mahsulotlar, tamaki va neft mahsulotlari ko‘pincha ushbu soliqqa tortilishini ko‘rsatdi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Rossiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Qozog‘iston va O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan eng ommabop aksiz tovarlar ro‘yxati<sup>8</sup>

Tovarlar nomi	O‘zbekiston	Rossiya	Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Germaniya	Italiya	Fransiya
Alkogol mahsulotlari	+	+	+		+	+	+
Spirt va spirt ichimliklari	+	+	+	+	+	+	+
Tamaki mahsulotlari	+	+	+	+	+	+	+
Dizel yoqilg‘isi	+	+	+	+			
Neft mahsulotlari, benzin	+	+	+	+	+	+	+
Yengil avtomobillar		+	+				
Tabiiy, suyultirilgan gaz	+	+		+	+	+	+
Kofe					+		
Energiya resurslari va elektr					+	+	+
Tarkibida shakar bo‘lgan va energetik ichimliklar	+	+		+	+	+	+

O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga (JST) a‘zo bo‘lish jarayonini jadallashtirish maqsadida mamlakat Prezidentining 2023-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonini jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori (PQ–181) qabul qilindi<sup>9</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 3-iyun kuni “Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–85-son Farmoni imzolandi. Ushbu hujjat doirasida amaldagi bojxona bojlari, soliqlar va yig‘imlarni JSTning Tariflar va savdo bo‘yicha Bosh Bitimi (GATT 1994) talablariga muvofiqlashtirish nazarda tutiladi<sup>10</sup>.

O‘zbekiston hukumati O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishi uchun bosqichma-bosqich shart-sharoit yaratmoqda (O‘zbekistonning ushbu tashkilotga a‘zo bo‘lishi jahonning ko‘pchilik mamlakatlari bilan kelishilgan). Shu munosabat bilan,

<sup>8</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonini jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida, 02.06.2023, PQ–181 <https://lex.uz/ru/docs/6480178>

<sup>10</sup> Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 03.06.2024, PF–85. <https://lex.uz/uz/docs/6949905>

mamlakatimiz aksiz solig‘i solish tizimining JSTning asosiy talablariga qanchalik mos kelishini baholash maqsadga muvofiqdir.

JST qoidalariga ko‘ra har bir mamlakat milliy soliq solish rejimini joriy qilishi kerak. Jumladan, JST talablarida shunday deyilgan: “ahdlashuvchi tomonlar ichki soliqlar va boshqa yig‘imlar, ichki sotishga, tovarlarni sotish, sotib olish, tashish, tarqatish yoki ulardan foydalanishga daxldor bo‘lgan qonunlar, qoidalar va talablar, tovarlarni muayyan miqdorda va ulushlarda aralashtirish, qayta ishlash yoki ishlatishni talab qiladigan ichki miqdoriy tartibga solish qoidalari import qilingan yoki mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarga mamlakatda ishlab chiqariladigan tovarlarni himoya qiladigan tarzda qo‘llanmasligi kerak, degan qoidani tan oladi”<sup>11</sup>.

Muallif tomonidan boshqa mamlakatlar JSTga a‘zo bo‘lgandan keyin import qilinadigan va ishlab chiqariladigan tovarlarga aksiz solig‘i stavkalarini qanday qilib unifikatsiya qilgani o‘rganib chiqilgan. Jumladan, Vietnam 2007-yilda JST a‘zosi bo‘lgan. Vietnam JSTga a‘zo bo‘lgunga qadar aksiz solig‘i stavkasi import qilingan va mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar uchun bir xil bo‘lgan (bundan sigaretalar mustasno) (1-rasm).

2002–2005-yillarda ishlab chiqarilgan sigaretalardan 45%, import qilingan tovarlardan 65% stavka bo‘yicha aksiz solig‘i undirilardi. 2006-yildan keyin ushbu soliq stavkalari ushbu mamlakat JSTga a‘zo bo‘lgunga qadar unifikatsiya qilindi.



### 1-rasm. Vietnamning JSTga a‘zo bo‘lishidan oldin va keyingi sigaretalarga aksiz solig‘i stavkalarining dinamikasi<sup>12</sup>

Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya Federatsiyasi, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari kabi boshqa davlatlarning JSTga a‘zo bo‘lish tajribasini o‘rganildi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, JSTga a‘zo bo‘lgan ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga aksiz solig‘i stavkalari bosqichma-bosqich oshirilib, import qilinadigan mahsulotlarga nisbatan esa pasaymoqda. Shu bois, O‘zbekiston JSTga a‘zo bo‘lgach, mahalliy mahsulotlar va import qilinadigan tovarlarga aksiz solig‘i bo‘yicha soliq yukini ham bosqichma-bosqich tenglashtirish zarur bo‘ladi. Bundan tashqari, aksiz solig‘i stavkalarini optimallashtirish Davlat byudjetiga

<sup>11</sup> III modda. Milliy ichki soliq solish va tartibga solish rejimi. <https://base.garant.ru/2560614/5ac206a89ea76855804609cd950fcaf/>

<sup>12</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

mablag‘lar tushumiga, shuningdek, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligiga qanday ta‘sir qilishini baholash zarur.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistondagi aksiz solig‘i solishni JST qoidalariga moslashtirish tahlili”** nomli ikkinchi bobida normativ-huquqiy asoslar va aksiz solig‘i solishni qo‘llash xususiyatlari, davlat byudjetiga aksiz solig‘i tushumlari tendensiyalari, shuningdek, aksiz solig‘i stavkalari va aksiz tovarlar ro‘yxati o‘zgarishining byudjet mablag‘larini shakllantirishga ta‘siri tahlil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 1-yanvardan kuchga kirgan **“Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”**gi Qonuniga muvofiq aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi, import qiluvchi korxonalar, birlashmalar va mulkchilikning barcha shakliga mansub tashkilotlar ushbu soliqni to‘lovchilar hisoblanadi (21-modda)<sup>13</sup>. Dastlab aksiz mahsulotlar ro‘yxatida import qilinadigan tovarlar yo‘q edi (import qilinadigan mahsulotlarga maxsus soliq qo‘llanilar edi).

1994-yildan boshlab O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan 20 turdagi mahsulotga (alkogol mahsulotlari, vinomateriallar, pivo, ozuqa spirti, sigaretalar, gilamlar va mashinada qayta ishlangan gilam mahsulotlari, zargarlik buyumlari, kumushdan yasalgan oshxona buyumlari, neft mahsulotlari, shuningdek, o‘simlik moyi, paxta tolasi, tabiiy teri, mo‘yna va hokazolarga) aksiz solig‘i solindi<sup>14</sup>. 1995-yilda ushbu ro‘yxatga olib kiriladigan alkogol mahsulotlarining barcha turlari kiritildi<sup>15</sup>.

Keyinchalik 1995-yildan boshlab ham mahalliy, ham import qilinadigan mahsulotlarga aksiz solig‘i solina boshlandi<sup>16</sup>. Ushbu norma birinchi marta 1998-yil 1-yanvarda joriy etilgan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida mustahkamlab qo‘yilgan edi (80-modda)<sup>17</sup>.

Ma‘lumki, O‘zbekiston bosqichma-bosqich Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lmoqda. Ushbu tashkilotning qoidalariga ko‘ra ishlab chiqariladigan va import qilinadigan mahsulotlarga solinadigan aksiz solig‘i stavkalari bir xil bo‘lishi kerak. Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlarini import qilishda aksiz solig‘i stavkasi 2024-yil 1-yanvardan boshlab 1 litr uchun 101 500 so‘m etib, respublikada ishlab chiqariladigan shunga o‘xshash mahsulotlar uchun 2024-yilning 1-yanvaridan boshlab 1 litr uchun 38 000 so‘m va 1-apreldan boshlab 40 000 so‘m etib belgilandi. Mamlakatimizda ishlab chiqariladigan mahsulotlarga aksiz solig‘i stavkasi import qilinadigan shunga o‘xshash mahsulotlarga nisbatan 2,7 baravar past, shu sababli bu JST qoidalariga mos kelmaydi va bosqichma-bosqich tuzatishni talab qiladi.

2025-yil 1-yanvardan boshlab aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlarini import qilishda aksiz solig‘i stavkasi 1 litr uchun 76 ming so‘m, respublikada ishlab

---

<sup>13</sup>Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida. 1991 yil 15-fevraldagi 225-XII-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni <https://lex.uz/docs/134875?ONDATE=10.08.1992%2000>

<sup>14</sup>Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 13-fevraldagi 600-sonli qaroriga 9-ilova. <https://lex.uz/docs/970210?ONDATE=13.12.1994%2000#971106>

<sup>15</sup> Prilozheniye №9 k postanovleniyu Kabineta Ministrov ot 13.12.1994 g. № 600. <https://lex.uz/docs/970210?ONDATE=13.12.1994%2000#971106>

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi 1994-yilgi byudjetining asosiy parametrlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 31-dekabrda 615-son qarori. <https://lex.uz/docs/991968#1006445>

<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/147172?ONDATE=01.01.1998%2000#148848>

chiqariladigan xuddi shunday mahsulotlarga esa 1 litr uchun 44 ming so‘m etib belgilandi. Aksiz solig‘i stavkalari o‘rtasidagi farq pasaytirildi.

Import qilinadigan tabiiy achigan natural vino uchun aksiz butun 2024-yil uchun 28 500 so‘m etib belgilandi. Ayni vaqtda shunga o‘xshash mahalliy mahsulotlar uchun aksiz solig‘i stavkasi butun o‘tgan yil davomida 1 litri uchun 1 so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, boshqa vino rusumlari bo‘yicha stavkalar mos kelmasligi kuzatildi, bu ham JST qoidalariga muvofiq emas. Jahon savdosida mamlakatimizda ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash odatda bojxona bojlari yordamida amalga oshiriladi.

2025-yil 1-yanvardan boshlab import qilinadigan tabiiy achigan natural vinoga solinadigan aksiz solig‘i stavkasi 14 000 so‘m, respublikada ishlab chiqariladigan xuddi shunday mahsulotlarga 1 litr uchun 5000 so‘m etib belgilandi. Bu nisbat hali ham JST qoidalariga mos kelmaydi.


2024-yil yanvar oyidan boshlab import qilinadigan mahsulotlar uchun filtrli sigaretlarga aksiz solig‘i 1000 dona uchun 325 ming so‘m +10 foiz va respublikada ishlab chiqarilganiga 250 700 so‘m + 10 foiz miqdorida tasdiqlandi. Ishlab chiqarilgan tamaki mahsulotlariga (sigaretlar, sigaretalar, kalyan tamakilari, snuslar va boshqalar) ushbu soliq 12% ga oshdi, import qilinadigan sigaretlardan esa 5% ga kamaytirildi (2-jadval). Ushbu stavka nisbati JST talablariga javob bermadi.

**2-jadval.**

**2024-yil uchun belgilangan tamaki mahsulotlariga aksiz solig‘i stavkalari (respublikada ishlab chiqariladigan va import qilinadigan mahsulotlar)<sup>18</sup>**

№	Tamaki mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari	
		Import qilinganda	Ishlab chiqarilganda
1.	Filtrli, filtersiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek	325 000 so‘m/ 1 000 dona + 10 %	250 700 so‘m/1 000 dona + 10 %

Muallif tomonidan xorij tajribasini o‘rganish asosida O‘zbekistonda mahalliy va import qilinadigan sigaretalar uchun aksiz solig‘i stavkalarini xuddi shu tarzda unifikatsiya qilish taklifi ishlab chiqildi (2-rasm).



**2-rasm. O‘zbekiston JSTga a‘zo bo‘lganda sigaretalarga aksiz solig‘ining taklif etilayotgan stavkalari<sup>19</sup>**

<sup>18</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>19</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

2025-yil 1-iyuldan boshlab import qilinadigan va mamlakatimizda ishlab chiqarilgan sigaretalar uchun aksiz solig‘i stavkasi 1000 dona uchun 340 ming so‘mga tenglashtirildi. Tariflarning bu nisbati JST qoidalariga to‘liq mos keladi.

Tamaki mahsulotlariga aksiz solig‘i bo‘yicha mablag‘lar aholining sog‘lom turmush tarzini takomillashtirish, sog‘liqni saqlashni tiklash, sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab oziq-ovqat xomashyosidan olinadigan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang‘ich fraksiyasiga solinadigan aksiz solig‘i stavkalari 2 baravarga oshirildi (butun 2024-yil uchun – 1 litri uchun 14 900 so‘m). Ushbu mahsulotlarni import qilishda aksiz solig‘i stavkasi tovarlar bojxona qiymatining 70 foizini tashkil etdi. Stavkalarning ushbu nisbati ham JST qoidalariga mos kelmaydi (3-jadval).

### 3-jadval

#### 2024-yil uchun alkogolli ichimliklar uchun aksiz solig‘i stavkalari<sup>20</sup>

№	Alkogol mahsuloti turi	Soliq stavkalari (1 litr uchun)		
		import qilinganda	ishlab chiqarilganda	
			2024-yil 1-yanvardan	2024-yil 1-iyuldan
1.	Oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang‘ich fraksiyasi, shuningdek don distillyati	70%	14 900 so‘m	

Muallifning tavsiyalariga muvofiq 2025-yil 1-yanvardan boshlab import qilinadigan va respublikada ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun etil spirti, uning alohida fraksiyalari, shuningdek, don distillyatiga aksiz solig‘i stavkasi 1 litr uchun 15 000 so‘mga tenglashtirildi. Stavkalarning ushbu nisbati JST qoidalariga to‘liq mos keladi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab neft mahsulotlariga aksiz solig‘i ham indeksatsiya qilindi. Jumladan, 1-yanvardan boshlab oxirgi iste‘molchi uchun suyultirilgan gazga solinadigan aksiz solig‘i stavkasi 1 litr uchun 425 so‘m etib, 1-apreldan esa ushbu soliq stavkasi 1 litr uchun 476 so‘m etib belgilandi. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan tabiiy gazga solinadigan aksiz solig‘i stavkasi uning sotish narxining 20 foizi miqdorida belgilandi, ya‘ni 2023-yil darajasida saqlanib qoldi. Stavkalar nisbati JST qoidalariga mos kelmaydi.

2025-yil 1-yanvardan boshlab joriy yil uchun respublikada qazib olinadigan tabiiy gazga solinadigan aksiz solig‘i stavkasi uning sotish narxining 12 foizi miqdorida belgilandi. Oxirgi iste‘molchi uchun suyultirilgan gazga solinadigan aksiz solig‘i stavkasi 2025-yil 1-yanvardan boshlab 1 litr uchun 476 so‘m, 1-apreldan esa 1 litr uchun 525 so‘m etib belgilandi. Ko‘rilgan chora-tadbirlardan

<sup>20</sup> O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi <https://lex.uz/ru/docs/4674893>

keyin import va mahalliy ishlab chiqarish stavkalari o‘rtasidagi farq kamaydi, biroq baribir saqlanib qoldi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonga olib kiriladigan ta‘m beradigan, xushbo‘ylashtiradigan yoki rang beradigan qo‘shimchalarsiz oq shakarga solinadigan aksiz solig‘i stavkasi 20 % miqdorida belgilandi. Bunda ichki bozorda oq shakar ishlab chiqarishga aksiz solig‘i solinmaydi. Ushbu mahsulotlarga aksiz solig‘ini solishning turli usullaridan foydalanish JST qoidalariga mos kelmaydi. Izlanuvchi tomonidan shakar uchun 10% miqdorida aksiz solig‘ining yagona stavkasini joriy etish taklif etilmoqda, bu esa oxirgi iste‘molchi uchun shakar narxini avvalgi darajada saqlab qolish imkonini beradi.

Davlat byudjetiga tushumlarni tahlil qilish (Davlat byudjeti jamg‘armasidan tashqari) aksiz soliqlari bo‘yicha tushadigan mablag‘lar 2019-yildagi 10 314,7 mlrd so‘mdan 2024-yilda 19 059,9 mlrd so‘mga yoki 1,84 baravarga oshganini ko‘rsatmoqda.

Byudjet mablag‘laridagi aksiz solig‘i ulushining kamayishi 2020-yil 1-avgustdan transport vositalarini import qilishda, shuningdek, boshqa 73 turdagi tovar pozitsiyalari bo‘yicha aksizlarning bekor qilinishi bilan bog‘liq. 2020-yildan boshlab respublikada import qilinadigan mahsulot turlariga aksiz solig‘i stavkalarini pasaytirish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda. Bu ayrim tovar guruhlari bo‘yicha aksizlar tuzilmasiga ta‘sir ko‘rsatdi (4-jadval).

2024-yilda neft mahsulotlari mahalliy tovarlar uchun aksiz solig‘i tushumlarining eng katta ulushini tashkil etdi, tushgan aksizlar butun summasining 40,5 foizi ularga to‘g‘ri keladi. O‘rganilayotgan davrda mamlakatda ishlab chiqarilgan alkogol mahsulotlariga qo‘yilgan aksiz solig‘ining Davlat byudjetidagi ulushi 14,0 % dan 16,0 % ga, neft va gaz mahsulotlari bo‘yicha 29,8 % dan 40,5 % ga, tamaki mahsulotlari bo‘yicha 14,4 % dan 20,9 % ga oshdi.

#### 4-jadval.

#### O‘zbekistonda 2019–2024-yillarda mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlar bo‘yicha aksizlar tushimi tuzilmasi <sup>21</sup>

	2019-yil		2020-yil		2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024 yil	
	Mrld	%	Mrld	%	Mrld	%	Mrld	%	Mrld	%	Mrld	%
Aksizlar	9 496	100	10 839	100	12 779	100	11 330	100	13 597	100	14 291	100
Alkogol mahsulotlar	1 327	14,0	13 981	12,9	1 416	11,1	2 127	18,7	2 339	17	2 347	16,4
Neft va gaz mahsulotlari	2 834	29,8	4 083	37,7	4 848	37,9	5 403	47,6	7 490	55	5 787	40,5
Tamaki mahsulotlari	1 364	14,4	1 545	14,3	1 929	15,1	2 281	20	2 439	18	2 990	20,9
Boshqa mahsulotlar	3 970	41,8	3 812	35,2	4 585	35,9	1 519	13,4	1 327	9,7	1 871	13,1

<sup>21</sup> Muallif tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Tadqiqotda import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i tushumlari dinamikasi ham o'rganildi. 2019-2024-yillarda respublikada ushbu sohada aksiz solig'i solishni maqbullashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2021-yildan boshlab o'simlik moyi, yengil avtomobillar va ayrim turdagi motorli transport vositalariga aksiz solig'i bekor qilindi.

O'rganilayotgan davrda aksiz solig'i bo'yicha tushumlar 819,0 mlrd so'mdan 728,3 mlrd so'mga yoki 1,1 baravarga kamaydi. Ushbu davrda neft va gaz mahsulotlari bo'yicha ushbu soliقدan tushumlar 2,4 baravar, tamaki mahsulotlari bo'yicha 16 baravar, alkogol mahsulotlari bo'yicha 3,5 baravar oshdi (5-jadval).

Neft, gaz va tamaki mahsulotlaridan tushayotgan tushumlarning oshishi O'zbekistonga olib kiriladigan mahsulotlarning jahon bozorlarida narxlari oshishi bilan izohlanadi. Import qilinadigan neft mahsulotlariga solinadigan aksiz solig'idan tushumlar import qilinadigan tovarlarga aksiz solig'idan tushadigan mablag'lar daromadlarining asosiy qismini tashkil qiladi.

### 5-jadval.

#### 2019–2023-yillarda tegishli import qilinadigan aksiz tovarlardan tushumlar tuzilmasi, mlrd so'm<sup>22</sup>

Nomlanishi	2019 yil		2020 yil		2021 yil		2022 yil		2023 yil		2024 yil	
	Mrld.	%										
Jami	819,0	100	859,0	100	308,2	100	370,1	100	602,9	100	728,3	100
Alkogol mahsulotlari	18,8	2,3	13,6	1,6	14,4	4,7	40,7	11,0	51,4	8,5	66,3	9,1
Neft va gaz mahsulotlari	71,6	8,7	312,0	36,3	204,9	66,5	210,4	56,9	294,8	48,9	214,2	29,4
Tamaki mahsulotlari	27,2	3,3	27,3	3,2	48,1	15,6	10,7	2,9	75,6	12,5	447,7	61,5
Boshqa mahsulotlar	702,0	85,7	506,1	59	41,0	13,3	108,2	29,2	181,0	30	0	0

Muallif tomonidan aksiz solig'i stavkalari va aksiz tovarlar ro'yxati o'zgarishining byudjet mablag'larini shakllantirishga ta'siri o'rganildi. Aksiz tovarlar ro'yxatiga tuzatishlar kiritilishi daromad maqsadlarini kengroq iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar bilan muvozanatlash bo'yicha strategik fiskal qarorlarni aks ettiradi.

Tadqiq etish uchun quyidagi turdagi mahsulotlar tanlangan: sigaretalar, pivo, vino va boshqa kuchli alkogolli ichimliklar. Tadqiqotda tavsifiy tahlil, tendensiyalar tahlili va stavkalar o'zgarishiga daromadlar reaksiyasining elastikligini (moslashuvchanligini) baholash birikmasidan foydalanilgan. Regression tahlildan daromadning elastikligini aniqlash uchun foydalaniladi. Tovarlarning har bir toifasi (pivo, vino, kuchli spirtli ichimliklar va sigaretalar) uchun aksiz solig'i tushumlarining elastikligi hisoblab chiqilgan. Mamlakatimiz tovarlari va import qilinadigan aksiz tovarlar uchun elastiklik baholari keltirilgan.

Elastiklik quyidagidek hisoblab chiqilgan: (F.1)

$$Elasticity = \frac{\% \text{ change in excise tax revenue}}{\% \text{ change in excise tax rate}} \quad (1)$$

bu yerda:

<sup>22</sup>Muallif tomonidan tuzilgan.

*change in excise tax revenue* – aksiz solig‘idan tushgan daromadlarning foiz o‘zgarishi, ya’ni ma’lum bir yil uchun daromadlarning kuzatilgan o‘zgarishi;  
*change in excise tax rate* – soliq stavkasi foizi o‘zgarishi, ya’ni ushbu yil uchun aksiz solig‘i stavkasida kuzatilgan tuzatish.

aksiz solig‘i stavkalari va daromadlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yana tekshirish uchun oddiy chiziqli regressiya modelidan foydalanildi: (F.2)

$$Revenue_t = \alpha + \beta * Rate_t + u_t \quad (2)$$

bu yerda:

$Revenue_t$ : t tegishli yilda aksiz solig‘idan tushgan daromadlar.

$Rate_t$ : t tegishli yilda aksiz solig‘i stavkasi.

$\beta$ : soliq stavkasi o‘zgarishiga daromadlarning elastikligini ifodalovchi koeffitsiyent.

$\alpha$ : kesishish koeffitsiyenti.

Tahlil natijalariga ko‘ra quyidagi natijalar olindi:

Sigaretalarga aksizlardan tushgan daromadlar (mamlakatimizda ishlab chiqarilgan) 2016-yildan 2023-yilgacha 284 151 mln so‘mdan 2 286 445 mln so‘mgacha izchil va keskin oshdi. Ushbu o‘shish 2018 va 2023-yillar oralig‘ida kuzatilgan soliq stavkalarining asta-sekin o‘shishi bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, 2018–2019-yillarda soliq stavkalari sezilarli darajada oshdi, bu 2018-yilda aksiz daromadlarining 100,2 % ga oshishiga to‘g‘ri keldi.

Bu kuchli ijobiy korrelyatsiya sigaretalarga qo‘yiladigan yuqoriroq soliq stavkalari soliq tushumlarini sezilarli darajada oshirganini nazarda tutadi, bu esa xarajatlarning o‘shishiga qaramay, sigaretalarga bo‘lgan talab o‘zgarishidan darak beradi. Tushumlarning o‘shishi ushbu toifadagi daromadlarni yig‘ishni rag‘batlantirishda aksiz solig‘i siyosatining samaradorligini ko‘rsatadi.


Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan pivoga qo‘llaniladigan aksiz solig‘idan tushgan daromadlar ayniqsa 2018–2022-yillarda barqaror va sezilarli darajada o‘ydi, 2023-yilda 373 823 mln so‘mga yetdi. Biroq pivoga soliq stavkasi 2023-yilda 13 800 so‘mdan 1 550 so‘mgacha keskin pasaydi. Soliq stavkalarining bunday pasayishi siyosatda yaqqol o‘zgarish yuz berganini, ehtimol ishlab chiqarishni rag‘batlantirish yoki iste‘mol xarajatlarini kamaytirish maqsad qilinganini anglatadi. Ushbu pasayishga qaramay, daromadlar 2023-yilda o‘shishda davom etdi, bu iste‘molning ortishi yoki normativ talablarga rioya qilishning yaxshilanishi kabi omillar pastroq stavkalarining ta‘sirini qoplashidan darak beradi.

Vinodan tushgan daromadlar ushbu davrda o‘zgarib turdi, 2020-yilda eng yuqori ko‘rsatkichni ko‘rsatdi – 28 229 mln so‘m, so‘ngra 2023-yilda 17 331 mln so‘mgacha keskin pasaydi. Bu pasayish aksiz stavkalari keskin tushganini aks ettiradi, ular 2022-yildagi 19 800 so‘mdan 2023-yilda 1 litr uchun 2200 so‘mgacha pasayib ketdi. Bu yerda bog‘liqlik ochiq-oydin ko‘rinib turibdi: so‘nggi yillardagi pastroq soliq stavkalari aksizlardan tushgan umumiy daromadlarning kamayishiga olib kelgan ko‘rinadi.

Vinodan tushadigan daromadlarning soliq stavkalari o‘zgarishiga bog‘liqligi ko‘zga tashlanmoqda. Sigaretalardan farqli ravishda vino bozori moslashuvchanroq

ko‘rinadi. Ushbu bozorda soliqlar pasaytirilishi yo‘qotilgan daromadlar o‘rnini to‘ldirish uchun yetarlicha iste‘molni rag‘batlantirishi shart emas.

Сравнение доходов от акцизов и ставок налога для разных категорий товаров



### 3-rasm. Aksiz solig‘i stavkalari o‘zgarishining O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga mablag‘lar tushumiga ta’siri<sup>23</sup>

Kuchli spirt ichimliklaridan (aroq, konyak va hokazolardan) aksiz tushumlari ortib bormoqda: tushumlar 2016-yildagi 680 688 mln so‘mdan 2023-yilda 1 856 097 mln so‘mgacha oshdi. O‘shish ayniqsa 2018–2019-yillarda sezildi, bu esa ushbu davrda soliq stavkalarining keskin oshishiga mos keladi. Garchi kuchli spirtli ichimliklarga soliq stavkalari 2023-yilda 228 000 so‘mdan 38 000 so‘mgacha pasaygan bo‘lsa ham, tushumlar baribir oshdi, bu esa talabning barqarorligini va spirtli ichimliklar ishlab chiqarish o‘sayotganini ko‘rsatadi. Bu vinodan farqli ravishda spirtli ichimliklar bozori nisbatan nomoslashuvchan bo‘lishi mumkin, bu bozorda soliq stavkalaridagi o‘zgarishlar umumiy talabga kamroq ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari hukumat daromadni maksimal darajada ko‘paytirish uchun sigaretalar kabi noelastik (nomoslashuvchan) mahsulotlarga aksiz solig‘ini tuzatishdan samaraliroq foydalanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq vino kabi ko‘proq moslashuvchan tovarlar uchun soliqlarning haddan tashqari oshishi tufayli daromadlar kamayishi mumkinligining oldini olish uchun buni puxta ko‘rib chiqish kerak. Vino va spirtli ichimliklar uchun soliq huquqni qo‘llash va ma’muriyatchiligini yaxshilash kabi qo‘shimcha chora-tadbirlar talab qilinishi mumkin.

<sup>23</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

B) Aksiz solig'idan tushgan daromadlarning regression tahlili

6-jadval.

**Regressiya, natijalar va qisqacha mazmuni<sup>24</sup>**

Mahsulot nomi	Elastiklik koeffitsiyenti ( $\beta$ )	R <sup>2</sup>
Pivo	-3.69	0.0579
Vino	0.18	0.0840
Spirtli ichimliklar	1.53	0.1493
Sigaretalar	12.43	0.8872

Yuqorida keltirilgan jadvalda pivo, vino, spirt ichimliklari va sigaretalardan iborat to'rtta mahsulot toifasi uchun aksizlar stavkalari hamda daromadlar o'rtasidagi aloqani baholovchi oddiy chiziqli regression tahlil natijalari keltirilgan (4-jadval).

Xulosa qilib aytganda Sigaretalar elastiklik koeffitsiyenti ( $\beta$ ) **\*\*12.43\*\*** soliq stavkalari va daromadlar o'rtasidagi kuchli ijobiy aloqani ko'rsatadi. Bu sal oldingi natijalarning ishonchliligini tasdiqlaydi va sigaretalarga bo'lgan talabning nomaslashuvchanligini ko'rsatadi.

Pivo mahsulotida salbiy elastiklik koeffitsiyenti (-3.69) soliq stavkalari va daromadlar o'rtasida kutilmagan teskari aloqani nazarda tutadi. Bu esa talabning sezuvchanligi kabi tashqi omillar borligini nazarda tutadi.

Vinoda kuchsiz elastiklik koeffitsiyenti (0.18) va soliq stavkalari vinodan tushgan daromadlar o'zgarishiga kam ta'sir etishini ko'rsatyapti.

O'tkir ichimliklar elastiklik koeffitsiyenti (1.53) o'rtacha ijobiy aloqani ko'rsatmoqda. Bunda soliq stavkalari daromad o'zgarishining taxminan 15 foizini izohlaydi.

Regression tahlil aksizlar stavkalariga kiritilgan tuzatishlar sigaretalarga eng katta ta'sir etishini tasdiqlayapti, shu tufayli Davlat byudjetiga tushumlarni ko'paytirish uchun sigaretalar maqbul nishon hisoblanadi (5-jadval). Aksincha, pivo, vino va kuchli spirt ichimliklari kuchsizroq aloqani ko'rsatyapti, bu esa ushbu mahsulotlar uchun soliq siyosati daromadlarni samarali rag'batlantirish uchun boshqa chora-tadbirlar bilan to'ldirilishi kerakligini nazarda tutadi. Biroq o'rganilayotgan tovarlarga aksiz solig'i amal qilishining bosh maqsadi ular iste'molini kamaytirish va insonning sog'lom yurish-turishini shakllantirishdir.

Ham ichki, ham import solig'i bo'yicha elastiklik qiymatlari **1.00** ni tashkil etadi, bu soliq stavkasi o'zgarishi va daromadlar o'rtasidagi izchil va mutanosib aloqani ko'rsatadi, bu esa talabning barqaror nomoslashuvchanligidan darak beradi (7-jadval).

Shunday qilib, korrelyatsiya tahlili natijalari soliq stavkalarining tuzatilishi import qilinadigan tovarlarga nisbatan mamlakatimizda ishlab chiqariladigan tovarlar, ayniqsa pivo va sigaretalarga kuchliroq ta'sir qilishini ko'rsatmoqda.

<sup>24</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

**Aksiz mahsulotlar (mamlakatimizda ishlab chiqarilgan va import qilinadigan) elastikligining qiyosiy tahlili<sup>25</sup>**

<b>Mahsulot</b>	<b>Mamlakatimiz mahsulotlarining elastikligi</b>	<b>Import qilinadigan mahsulotlarning elastikligi</b>
<b>Pivo</b>	1.59	-0.20
<b>Vino</b>	-0.80	0.42
<b>O'tkir ichimliklar</b>	0.74	0.39
<b>Sigaretalar</b>	1.00	1.00

Ayniqsa, vino va pivo kabi import qilinadigan tovarlar ko'proq sezuvchan, bu ko'pincha soliqlar oshirilganda daromadlarning kamayishiga olib keladi.

Hukumat aksiz solig'i stavkasini tuzatishda iste'molni kamaytirish va aksiz solig'i bo'yicha tushumlarni oshirish uchun sigaretalar kabi aksiz tovarlarning nomoslashuvchan toifalariga e'tibor qaratishi, shu bilan birga vino kabi elastik tovarlar uchun soliq siyosatini muvozanatlashtirishi kerak.

Shunday qilib, korrelyatsiya tahlili natijalari soliq stavkalarining tuzatilishi import qilinadigan tovarlarga nisbatan mamlakatimizda ishlab chiqariladigan tovarlar, ayniqsa pivo va sigaretalarga kuchliroq ta'sir qilishini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, vino va pivo kabi import qilinadigan tovarlar ko'proq sezuvchan, bu ko'pincha soliqlar oshirilganda daromadlarning kamayishiga olib keladi.

Hukumat aksiz solig'i stavkasini tuzatishda iste'molni kamaytirish va aksiz solig'i bo'yicha tushumlarni oshirish uchun sigaretalar kabi aksiz tovarlarning nomoslashuvchan toifalariga e'tibor qaratishi, shu bilan birga vino kabi elastik tovarlar uchun soliq siyosatini muvozanatlashtirishi kerak.

**“O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi sharoitida aksiz solig'i solishni modernizatsiya qilish yo'llari”** deb nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobida O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'i solishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar va O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi sharoitida aksiz solig'i tushishi prognozi keltirilgan.

Qayd etish joizki, iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlariga erishishda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhiti katta ta'sir ko'rsatadi. Respublikada ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga katta e'tibor qaratilmoqda va tadbirkorlar uchun qo'shimcha rag'batlantiruvchi omillar yaratilmoqda. Bu O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi sharoitida aksiz solig'i solishni takomillashtirishga bevosita taalluqlidir.

2025-yil 30-yanvarda qabul qilingan 2025-yilga mo'ljallangan Davlat dasturining muhim vazifalari quyidagilardan iborat: atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslarini tejash; aholi salomatligini mustahkamlash, ekologik turmush

<sup>25</sup> Muallif tomonidan yuzilgan

tarzini shakllantirish va inson potensialini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish<sup>26</sup>.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonda yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etish uchun aksiz solig'i solishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq ularning natijadorligi hali ham yetarli emas (tengsizlik yuqori darajada saqlanib qolmoqda, noto'g'ri ovqatlanish tufayli kasalliklarga chalinish darajasi yuqori, ekologik vaziyat yomonlashmoqda). O'zbekiston JSTga a'zo bo'layotganini hisobga olib, mamlakatimizda ishlab chiqariladigan mahsulotlar va import qilinadigan shunga o'xshash mahsulotlarga aksiz solig'i stavkalarini tenglashtirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" Taraqqiyot strategiyasining 1.2-bandida "Aholining sog'lig'ini ta'minlash borasidagi islohotlar"da aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirish, saraton, yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet va nafas yo'llari kasalliklaridan erta o'lim ko'rsatkichlarini 2,5 barobarga kamaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, strategiyaning 20-bandida aholi o'rtasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida katta yoshdagilar orasida ortiqcha vazn va semirish bilan kasallanish darajasini mos ravishda 32 % va 23 %ga kamaytirish kerakligi qayd etilgan. Ortiqcha vaznli 5 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi o'rtacha 2 barobar kamayishi kerak. Tarkibida ko'p miqdorda trans yog'lar, tuz va shakar bo'lgan mahsulotlarni (100%) olib kirish, tayyorlash va ta'lim va tibbiyot muassasalariga sotishni cheklash ko'zda tutilmoqda.

Endi O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda shirin gazlangan va energetik ichimliklarni me'yoridan ortiq iste'mol qilish natijasida yuzaga kelgan kasalliklar sonining dinamikasini ko'rib chiqamiz. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, respublikada qandli diabet, semizlik, yurak-qon tomir kasalliklari kabi kasalliklar ko'payib bormoqda (8-jadval).

## 8-jadval

### O'zbekistonda qandli diabet, ortiqcha vazn va yurak xastaliklaridan aziyat chekayotgan fuqarolar soni<sup>27</sup>

	Kasallik turlari	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Qandli diabet	182 910	180 446	251 201	257 457	277 926	310 060	345 615	363 585
2	Ortiqcha vazn	26 082	34 559	46 790	46 353	58 073	155 340	231 106	243 729
3	Yurak kasalliklari	1358 487	1469 345	1611 022	575 330	1584 489	1516716	1666199	1861438

Muallif taklifiga ko'ra Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish maqsadida 2024-yil 1-apreldan boshlab respublikada tarkibida shakar bo'lgan gazlangan

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.01.2025-yildagi PF-16-son/ "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/7369703>

<sup>27</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

ichimliklarga 1 litr uchun 500 so‘m miqdorida, shuningdek, energetik va tonik ichimliklarga 1 litr uchun 2000 so‘m miqdorida aksiz solig‘i joriy etildi.

Shuningdek, muallifning shakar va boshqa shirinlashtiruvchi qo‘shilgan gazlanmagan ichimliklarga aksiz solig‘ini joriy etish to‘g‘risidagi taklifi 2025-yil 1-apreldan joriy qilingan (aksiz solig‘i stavkasi 1 litr ichimlik uchun 500 so‘m etib belgilangan).

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) gazlangan shirin ichimliklar va boshqa shirinlashtiruvchi ko‘p iste‘mol qilish ortiqcha vazn, qandli diabet va tishlarning yemirilishiga olib kelishi mumkinligini hisobga olib, ushbu ichimliklarga soliq joriy etishni tavsiya qildi.

Shu bilan birga, kelgusida tarkibida shakar va shirinlashtiruvchilar bo‘lgan respublikada ishlab chiqariladigan va import qilinadigan alkogolsiz tetiklashtiruvchi ichimliklarga aksiz solig‘ining tabaqalashtirilgan stavkalari mexanizmini joriy etish zarur.

Aholi salomatligini muhofaza qilish va turli kasalliklarning oldini olish maqsadida 2026-yil 1-yanvardan tarkibida shakar bo‘lgan 5 grammdan ortiq shakar yoki boshqa turdagi shirinlashtiruvchi bo‘lgan ichimliklarga quyidagi tabaqalashtirilgan shkala bo‘yicha aksiz solig‘ini joriy etish taklif etiladi: 100 millilitrida 5 grammdan 8 grammgacha shakar yoki boshqa turdagi shirinlashtiruvchi modda bo‘lgan ichimliklarning har 1 litri uchun ichimlik narxining 5%, lekin 500 so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda past darajali aksiz; 100 millilitrida 8 gramm va undan ko‘p shakar yoki boshqa turdagi shirinlashtiruvchi modda bo‘lgan ichimliklarning har 1 litri uchun ichimlik narxining 10%, lekin 1 000 so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda yuqori darajali aksiz.

Tarkibida shakar yoki boshqa shirinlashtiruvchilar bo‘lgan ichimliklarga aksiz solig‘ining joriy etilishi dastlab ushbu ichimliklar narxining oshishiga olib kelishi mumkin. Biroq bu soliqni ilgari joriy qilgan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, ko‘pchilik hollarda ichimliklar ishlab chiqarish hajmlarini o‘zgartirmay, ularda shakar va boshqa shirinlashtiruvchilar miqdori kamaytirilgan, ya‘ni ishlab chiqaruvchilar inson salomatligiga kamroq zarar yetkazadigan ichimliklar tarkiblarini yaratgan.

Farmatsevtika tarmog‘i uchun etil spirtiga aksiz solig‘ini chegirib qolish mexanizmini joriy etish taklif etilmoqda. Aksiz xomashyoni ishlab chiqaruvchi tomonidan xaridorga taqdim etilgan (berilgan) hisobvara-q-faktura, hisob-kitob va dastlabki hujjatlar boshqa aksiz tovarlarni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan aksiz xomashyoni (materiallarni) sotib olish bahosida to‘langan aksiz solig‘i summasiga soliq chegirmalarini qo‘llash uchun asos hisoblanadi.

Tadqiqotda O‘zbekistonning JSTga qo‘shilishi sharoitida 2030 yilga qadar aksiz solig‘i tushumlarining prognozi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu ichki va import tushumlarini alohida tovar kategoriyalari bo‘yicha qamrab oladi.

Prognoz 2016-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda mahalliy va import qilinadigan tovarlar uchun aksiz solig‘i tushumlari bo‘yicha tarixiy ma‘lumotlarga asoslanadi. Ma‘lumotlar to‘plami pivo, vino, spirtli ichimliklar va sigaretlardan olingan daromadlarni o‘z ichiga oladi.

Tahlilni o'tkazish va prognozni ishlab chiqishda prognozlash usuli: Holt-Winters eksponensial tekislash usuli foydalanildi. Ushbu usul o'rganilayotgan seriyalarni modellashtirish uchun eng foydali hisoblanadi:

Trendlar: vaqt o'tishi bilan daromadning o'zgarishi.

Mavsumiylik: iqtisodiy sikllardan kelib chiqadigan o'zgarishlar.

Tebranishlarni yumshatish: barqarorroq prognozlar uchun o'tmishdagi ma'lumotlarning o'zgaruvchanligini kamaytirish.

Holt-Winters modeli tendensiya va mavsumiylik komponentlarini qo'shish orqali oddiy eksponensial tekislashni kengaytiradi.

$$\begin{aligned} S_t &= \alpha Y_t + (1 - \alpha)(S_{t-1} + T_{t-1}) \quad F4. \\ T_t &= \beta(S_t - S_{t-1}) + (1 - \beta)T_{t-1} \quad F5 \end{aligned} \quad (3)$$

Bu yerda:

$S_t$  = daraja (t vaqtida silliqlashtirilgan qiymat);

$Y_t$  = t vaqtida kuzatilgan qiymat;

$T_t$  = tendensiya (o'sish sur'atlarini baholash);

$\alpha$  = darajani silliqlashtirish koeffitsiyenti ( $0 < \alpha < 1$ );

$\beta$  = tendensiyani silliqlashtirish faktori ( $0 < \beta < 1$ ).

Ushbu model har yili tendensiya va darajani o'tgan tendensiyalar asosida yangilaydi, bu esa uni moliyaviy va soliq tushumlarini oldindan aytish uchun yuqori samarali qiladi.

Tahlil jarayonida iqtisodiy va soliq siyosatiga asoslangan turli farazlarga tayangan holda 3 ta prognozashtirish ssenariysi ishlatilgan. Ushbu ssenariylar iqtisodiy o'sish, siyosat o'zgarishi, inflyatsiya va iste'molchilar xulq-atvori kabi noaniqliklarni hisobga olish uchun ishlab chiqilgan.

O'rtacha (asosiy prognoz) ssenariyda mavjud qoidalar odatda saqlanib qolishi va aksiz solig'i tushumlari tarixiy tendensiyalarga amal qilishi faraz qilinadi.

O'tgan tendensiyalar asosida ekstremal tashqi zarbalarsiz eksponensial silliqlashtirish (Holt-Winters usuli) qo'llaniladi.

Bu barqaror iqtisodiyotni aks ettiradi, shu bilan birga aksiz solig'i tushumlarining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari o'tgan davrda kuzatilganidek davom etadi.

Optimistik ssenariy (yuqori o'sish)ga ko'ra yuqori iqtisodiy faoliyat, soliq qonunchiligiga qat'iy rioya qilish va iste'molning o'sishini faraz qiladi.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rta ssenariydan 10% yuqori bo'ladi, quyidagi sabablarga ko'ra:

Alkogolli ichimliklar va tamaki iste'moli oshadi;

Soliq yig'imlarining samaradorligi oshadi;

Import tovarlari uchun qulay savdo siyosati.

Prognoz qilinayotgan o'rta ssenariy qiymatlari 1,10 koeffitsiyentiga ko'paytiriladi (10% o'sish).

Pesimistik ssenariy (past o'sish) iqtisodiyotning sekinlashishi, iste'molning kamayishi va potensial me'yoriy cheklavlarni faraz qiladi.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rta ssenariydan 10% past bo'ladi, quyidagi sabablarga ko'ra:


Iqtisodiy inqiroz iste'molchi xarajatlarini kamaytiradi;  
Alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini sotish qoidalarining kuchayishi;  
Kontrabanda va soliq to'lamaslikning o'sishi.

Prognoz qilinayotgan o'rta ssenariy qiymatlari 0,90 koeffitsiyentiga ko'paytiriladi (10% kamayish).

Birinchi O'rta (asosiy) ssenariy bo'yicha 2030-yilda mahalliy tovarlardan aksiz solig'i tushumlari 7 536,42 mlrd.so'mni, import tovarlardan aksiz solig'i tushumlari 3 303,27 mlrd.so'mni tashkil etadi.

Optimistik ssenariy bo'yicha (o'sish 10%) 2030-yilda mahalliy toovarlar uchun aksiz solig'i tushumlari 7 872,63 mlrd so'mni, import tovarlardan aksiz solig'i tushumlari 3 190,13 mlrd.so'mni tashkil etadi.

Pessimistik ssenariyda (10% ga pasayish) aksiz solig'i tushumlari 2030-yilda mahalliy toovarlar uchun aksiz solig'i tushumlari 7 200,2 mlrd.so'm, import tovarlardan aksiz solig'i tushumlari 2 874,4 mlrd.so'mni tashkil etadi (4-rasm).



**4-rasm. Aksiz tushumlari prognozi (2025-2026) (o'rganilayotgan tovarlar uchun)<sup>28</sup>**

O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlaridan aksiz solig'i tushumlarining prognoz qilinayotgan o'sishini empirik tarzda sinab ko'rish uchun 2016–2024-yillar uchun makroiqtisodiy va siyosat bilan bog'liq o'zgaruvchilardan foydalangan holda ko'p regressiya tahlili o'tkazildi. Birlamchi spetsifikatsiyadagi qaram o'zgaruvchi

<sup>28</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

aksiz solig‘i bo‘yicha umumiy tushum miqdori edi. Ajratilgan ma‘lumotlar mahalliy va import qilingan komponentlarni sinovdan o‘tkazish imkonini berdi.

Eng samarali regressiya modeli, to‘g‘rilangan  $R^2$  va nazariy mantiq asosida, nominal YAIM, hisoblanmagan iste‘mol indeksi va pivo hamda aroq uchun aksiz stavkalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu model umumiy aksiz daromadining dispersiyasining deyarli 99,8% ni tushuntiradi (to‘g‘rilangan  $R^2 = 0,998$ ), bu esa o‘rganilayotgan ma‘lumotlar o‘rtasidagi juda kuchli bog‘liqlikni ko‘rsatadi (9 - jadval).

**9-jadval**

**Regressiya natijalari (1-model)**

Variable	Koeffitsient	p-value
const	13262.539	0.000
YaIM	-0.029	0.010
Hisoblanmagan iste‘mol indeksi	-35814.884	0.001
Pivo uchun aksiz stavkasi	-3.035	0.253
Spirтли ichimliklar uchun aksiz stavkasi	18.567	0.231
R-squared	0.999	
Adj. R-squared	0.998	N = 8

Tushuntiruvchi o‘zgaruvchilar orasida hisoblanmagan iste‘mol indeksi kuchli salbiy omil sifatida paydo bo‘ldi, bu esa nazoratni yaxshilash va yashirin bozoridagi faoliyatni kamaytirish rasmiy soliq yig‘imlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri oshirishini taklif qiladi. Spirтли ichimliklar uchun aksiz stavkasi umumiy daromad bilan doimiy ijobiy bog‘lanishni ko‘rsatdi, bu esa Ramsey turi soliq nazariyasi bilan mos keladi va nisbatan elastik bo‘lmagan talabga ega bo‘lgan mahsulotlarni maqsad qilishni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, aholi o‘sishi muqobil model spetsifikatsiyalarida statistik jihatdan muhim ijobiy omil sifatida aniqlandi, bu esa aksiz tovarlar uchun kengayib borayotgan iste‘molchilar bazasini aks ettiradi (10-jadval).

**10-jadval**

**Regressiya natijalari (2-model)**

Variable	Koeffitsient	p-value
const	-12431.375	0.001
YaIM	-0.029	0.010
Aholi	0.634	0.000
Hisoblanmagan iste‘mol indeksi	-16782.356	0.001
Pivo uchun aksiz stavkasi	-3.035	0.253
Spirтли ichimliklar uchun aksiz stavkasi	18.567	0.231
R-squared	0.999	
Adj. R-squared	0.998	N = 8

YAIM barcha modellarda manfiy koeffitsiyent sifatida kuzatiladi, bu daromadlar oshishi bilan iste‘mol shakllarining o‘zgarishi (masalan, norasmiy kanallar tomon) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq, agar joriy demografik tendensiyalar davom etsa, qayd etilmagan iste‘mol qisqarishda davom etsa va aksiz

solig'i stavkalari, ayniqsa, aroq kabi yuqori daromadli mahsulotlar uchun ehtiyotkorlik bilan optimallashtirilsa, O'zbekistonda aksiz solig'i tushumlari uzoq muddatda o'sishda davom etadi.

Ushbu xulosalar ilgari bayon qilingan nazariy asoslarga mos keladi va ushbu tadqiqotda taqdim etilgan o'rtacha va optimistik daromad prognozlari uchun mustahkam empirik asos yaratadi.

Shunday qilib, tadqiqot qilinayotgan aksiz tovarlar bo'yicha tushumlar prognozi ichki va tashqi omillarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'zgartirishidan bog'liq (jahon narxlari konyunkturasi, import qilinadigan mahsulotlar uchun bojxona to'lovlarining joriy qilinishi, milliy valyuta kursining pasayishi, foiz stavkalarining o'zgarishi). Eng yaxshi ssenariy (optimistik) bo'yicha aksiz solig'i tushumlari 2030 yilgacha oshishi kutilmoqda.

Biroq, aksiz solig'ining asosiy funksiyasi byudjet mablag'larini shakllantirishda emas, balki aholi kasallanish darajasini pasaytirish, atmosferadagi havoning sifatini yaxshilash, fuqarolar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish va aholi uchun sifatli davlat xizmatlariga kirishni kengaytirishda yotadi.

Taklif qilinayotgan yondashuv yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilishga yordam beradi hamda boshqa soliq va yig'imlar (shaxsiy daromad solig'i va boshqalar) hisobidan byudjet daromadlarining o'sishiga, kasallik tufayli ish vaqtining yo'qotilishini kamaytirishga, qandli diabet va boshqa kasalliklarni davolashga, davlat xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Aksiz solig'i solishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar taklif etilmoqda:

mamlakatimizda ishlab chiqariladigan va import qilinadigan barcha turdagi mahsulotlar uchun hozirgi vaqtda amalda bo'lgan aksiz solig'i stavkalarini yanada unifikatsiya qilish yoxud mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lishiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida milliy soliq solish rejimini joriy etish, chunki 2011-yilgi MDH mamlakatlarining erkin savdo zonasi to'g'risidagi bitimga qo'shilish haqidagi bayonnomaga muvofiq O'zbekiston 2020-yil 31-dekabrgacha bo'lgan muddatda o'z hududida milliy soliq solish rejimini o'rnatish majburiyatini olgan;

ishlab chiqarilishi ko'p elektr energiyasini talab qiladigan tovarlarga aksiz solig'ini joriy etish (metallurgiya mahsulotlari, bitkoinlar chiqarish);

aksiz solig'i stavkalari bir yilda ko'pi bilan 1-marta (3 yil) indeksatsiya qilinishi mumkinligini nazarda tutuvchi qoidani qonunchilik darajasida joriy etish, bu investitsiya muhitini yaxshilash uchun muhimdir;

inson salomatligi va atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan mahsulotlar hisobiga aksiz tovarlar ro'yxatini kengaytirish (palma yog'i, zararli kimyoviy qo'shimchalar va konservantlardan foydalanadigan iste'mol mahsulotlari);

“aksiz tovarlar”, “aksiz solig'i bo'yicha soliq chegirmasi”, “aksiz solig'i bo'yicha avans to'lovi”, “aksiz solig'i to'lovchisini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida guvohnoma” kabi tushunchalarni soliq qonunchiligiga joriy etish;

2026-yil 1-yanvardan qimor o'yinlariga aksiz solig'ini joriy etish (2025-yilda respublikada biznesning ushbu turi bilan shug'ullanishga ruxsat berildi).

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga tegishli o'zgartirishlar kiritish zarur.

## XULOSA

1. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining "tayyorgarlik bosqichida" aksiz solig'i solish tizimini qayta ko'rib chiqish va uni ushbu tashkilot talablariga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. JSTning adolatli soliq siyosati bo'yicha amaldagi qoidalari Tariflar va savdo bo'yicha Bosh bitimning (GATT) 3-moddasida keltirilgan. Unga ko'ra "milliy soliq tizimlari" kamsitishga yo'l qo'ymasligi kerak, ya'ni import qilinadigan tovarlarga mamlakatda ishlab chiqariladigan tovarlarga bo'lganidek soliq solinishi kerak.

2. Respublikada aksiz solig'ining ijtimoiy samaradorligini oshirishga import qilinadigan va mamlakatda ishlab chiqariladigan sigareta mahsulotlariga qo'llaniladigan turli xil darajadagi aksiz solig'i stavkalarini unifikatsiya qilish orqali erishish maqsadga muvofiq.

3. Teng raqobat sharoitlarini yaratish maqsadida etil spirti, uning alohida fraksiyalari, shuningdek, don distillyati uchun mahalliy va import mahsulotlariga aksiz solig'i stavkalari farqini kamaytirish maqsadga muvofiq.

4. Shakar va tabiiy gazga (mahalliy va import qilinadigan) aksiz solig'i stavkalari JST qoidalariga mos kelmaydi va birlashtirishni talab qiladi.

5. Ham ichki, ham import solig'i bo'yicha sigaretalar elastikligi koeffitsiyenti 1.00 ni tashkil etadi, bu soliq stavkasi o'zgarishi va daromadlar o'rtasidagi izchil hamda mutanosib aloqani ko'rsatadi, bu esa talabning barqaror nomoslashuvchanligidan darak beradi.

6. Respublikada aksiz osti tovarlari diversifikatsiyasini kuchaytirishga tarkibida shakar va sun'iy shirinlashtiruvchi qo'shimchalar bo'lgan gazlangan (1 litr uchun 500 so'm) va energetik ichimliklarga (1 litrga 2000) aksiz solig'ini joriy etish orqali erishish maqsadga muvofiq.

7. Tadqiqot qilinayotgan aksiz tovarlar bo'yicha tushumlar prognozi ichki va tashqi omillarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'zgartirishidan bog'liq (jahon narxlari konyunkturasi, import qilinadigan mahsulotlar uchun bojxona to'lovlarining joriy qilinishi, milliy valyuta kursining pasayishi, foiz stavkalarining o'zgarishi). Eng yaxshi ssenariy (optimistik) bo'yicha aksiz solig'i tushumlari 2025-yilda 5,9 trillion so'm va 2026-yilda 6,4 trillion so'mga oshishi kutilmoqda.

8. Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxatini inson salomatligi va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan mahsulotlar (palma yog'i, zararli kimyoviy qo'shimchalar va konservantlar, qimor o'yinlari,) yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan kengaytirish kerak.

9. Farmatsevtika sanoatidagi korxonalar tomonidan etil spirtidan foydalanish uchun aksiz solig'ining summasini chegirish mexanizmini joriy etish taklif qilinmoqda.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/30.12.2019.I.01.11 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОГО  
УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

---

**БАНКОВСКО-ФИНАНСОВАЯ АКАДЕМИЯ РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН**

**УБАЙДУЛЛАЕВА АЗИЗА ХАМРАКУЛОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АКЦИЗНОГО НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ В  
УСЛОВИЯХ ВСТУПЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В WTO**

**08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером В2023.4.PhD/Iqt3527**

Диссертация выполнена в Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:**

**Воронин Сергей Александрович,**  
доктор экономических наук

**Официальные оппоненты:**

**Бердияров Бахриддин Тавашарович**  
доктор экономических наук, профессор

**Кузиева Наргиза Рамазановна**  
доктор экономических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ташкентский международный университет Кимё**

Защита диссертации состоится " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2025 г. в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека DSc.20/13.05.2020.I.23.01 (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4 Тел.: (99871) 246-08-96; 246-02-24 E-mail: [devonxona@nuu.uz](mailto:devonxona@nuu.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека (регистрационный номер \_\_\_\_\_). Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4 Тел.: (99871) 246-08-96; 246-02-24 Электронная почта: [devonxona@nuu.uz](mailto:devonxona@nuu.uz)

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 г.

(протокол реестра рассылки № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 г.)

**А.М. Содиков**

Заместитель Председателя научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**К.К. Мамбетжанов**

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**А.В. Вахабов**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Во многих странах мира усиливается тенденция к введению акцизов на сладкие напитки и другие виды продукции, чрезмерное употребление которой вредно для здоровья человека и опасно для окружающей среды, а также на табачную и алкогольную продукцию. По данным Международного валютного фонда, «...в последние годы общемировая динамика доходов бюджетов от подакцизных товаров и услуг в странах мира практически не меняется, составляя в среднем в Германии 10% ВВП, в Канаде – 8,0–7,6%, в США – 4,4–4,1%, в России – 7,5–8,2%»<sup>29</sup>. Эта ситуация свидетельствует о высокой актуальности научно-теоретических исследований в сфере акцизов и их интеграции в национальное законодательство с учётом международных требований.

В научных исследованиях, проводимых во всем мире, вопросы повышения социально-экономической эффективности акцизного налога, улучшения атмосферного воздуха путем усиления его стимулирующей и ограничительной функций, а также повышения его влияния на снижение заболеваемости рассматриваются как глобальная проблема. В частности, к приоритетным направлениям исследований относятся сбор налогов на основе принципов реального времени и «больших данных», переход к системе интеллектуальных налогов («умные налоги»), автоматическое налогообложение с использованием блокчейн-технологий, более эффективная реализация его регулирующей функции путем цифровизации процесса учета и контроля акцизных платежей.

В Узбекистане особое внимание уделяется повышению эффективности акцизных налогов, оптимизации и выравниванию ставок на отечественную и импортируемую продукцию, а также улучшению экологической обстановки и укреплению здоровья населения. В частности, стратегическими задачами социально-экономического развития страны обозначены «...полная цифровизация, упрощение налоговой системы и создание равных возможностей для предпринимателей», а также «...сокращение доли взрослого населения с избыточным весом и ожирением до 32 и 23 процентов соответственно...»<sup>30</sup> в качестве одного из приоритетных направлений. Обеспечение реализации этих задач требует углубления научных исследований, направленных на совершенствование системы налогообложения подакцизной продукции в Республике Узбекистан.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, определенных в Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-891 от 28 декабря 2023 года « О внесении дополнений и изменений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с принятием основных направлений налоговой и бюджетной политики на 2024 год», ЗРУ №-1014 от

---

<sup>29</sup> Fiscal policy in the Great election year [https://www.imf.org/-/media/Files/Publications/fiscal\\_monitor/2024/April/English/ch1.ashx](https://www.imf.org/-/media/Files/Publications/fiscal_monitor/2024/April/English/ch1.ashx)

<sup>30</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УФ-158 «О Стратегии развития Узбекистана до 2030 года» <https://lex.uz/docs/-6600413>

